

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.07.2024.I.78.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDULXAYEVA SHAXNOZA MUXAMMADIYEVNA

**BILVOSITA SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMINI
RAQAMLASHTIRISH JARAYONIDA TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna

Bilvosita soliqlarni undirish mexanizmini raqamlashtirish jarayonida takomillashtirish..... 3

Абдулхаева Шахноза Мухаммадиевна

Совершенствование механизма взимание косвенных налогов в процессе цифровизации..... 31

Abdulkhayeva Shakhnoza Mukhammadiyevna

Improving the mechanism for collecting indirect taxes in the process of digitalization..... 61

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 66

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/30.07.2024.I.78.06 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDULXAYEVA SHAXNOZA MUXAMMADIYEVNA

**BILVOSITA SOLIQLARNI UNDIRISH MEXANIZMINI
RAQAMLASHTIRISH JARAYONIDA TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Dostor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Iqt2949 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) ilmiy kengashning veb-sahifasi (termizdu@umail.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Xudoyqulov Sadirdin Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Alimardanov Ilhom Muzrobshoevich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Maxmado'stov Jalol Maxmadustovich
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.07.2024.I.78.06 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "10" 06 soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (304 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel: (876) 221-74-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "5" 06 kuni tarqatildi.
(2025-yil «3» 5 daqi 06 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.H. Toshqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ra'isi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

U. Tolakov U.T. To'likov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

S.J. Gadoyev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tajribalariga ko'ra soliqlar tizimini yanada takomillashtirish maqsadida soliq ma'muriyatlarini yangi modelga, ya'ni raqamli soliq ma'muriyatiga aylanadigan yanada integratsiyalashgan modelga o'tish muhim ahamiyatga ega. Xususan, soliq omillarini atroflicha tahlil qilish, soliq turlarini unifikatsiya qilish, elektron tizim va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash asosida soliqlarni undirish, soliq hisobotlarini taqdim etish, shuningdek korxonalar faoliyatini yuritishida qulayliklar yaratishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada Yevropa Komissiyasi (Transatlantical Network Analysis) a'zo davlatlarga ma'lumot almashish va ma'lumotlarini qayta ishlash, firibgarlikni aniqlash, hamda maqsadli ma'lumotlarni to'plashni va uning xavf tahlilini avtomatlashtirib, shubhali tarmoqlarni qo'l aralashuvisiz Yevropa Komissiyasi elektron tijorat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plashni takomillashtirishga qaratilgan qonunchilikni joriy qildi¹. Bugungi kunda iqtisodiy faoliyatni yanada rivojlantirish, hamda soliqlarni undirishni takomillashtirish maqsadida soliq ma'murchiligida soliqlarni raqamlashtirish, yangi raqamli texnologiyalarni joriy qilish va amalda qo'llash muhim hisoblanadi.

Jahonda bilvosita soliqlarni undirish mexanizmlarini raqamlashtirish orqali takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar asosan soliq ma'muriyatchiligini samarali tashkil etish, raqamli texnologiyalar yordamida soliq tushumlarini oshirish, soliq to'lovchilarning hisobot berish jarayonlarini avtomatlashtirish va shaffoflik darajasini kuchaytirish masalalariga qaratilgan. Hozirgi tadqiqotlarda elektron hisob-faktura tizimlarini joriy etish, blokcheyn texnologiyasi asosida soliq operatsiyalarini monitoring qilish, raqamli platformalar orqali real vaqtda ma'lumot almashinuvini ta'minlash hamda soliqdan qochish holatlarini aniqlash uchun sun'iy intellekt va analitik vositalardan foydalanish asosiy yo'nalishlar sifatida belgilangan. Shu bilan birga, tadqiqotlar raqamlashtirish jarayonida huquqiy bazani takomillashtirish va kiberxavfsizlikni ta'minlash muhim shart sifatida ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekistonning fiskal siyosati fiskal barqarorlikni ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, asosiy maqsadlaridan biri konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini YIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslikdir². Zamonaviy axborot xizmatlari ko'rsatishni kengaytirish va xufiyona iqtisodiyotni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilgan chora tadbirlar natijasida qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar soni 2,7 barobarga, soliq to'lovchilar ko'rsatiladigan xizmatlar 2,8 barobarga, elektron xizmatlar 4,1 barobarga oshdi. Shuningdek soliq qo'mitalari tomonidan o'tkaziladigan hujjatli soliq tekshiruvlari 2,5 barobarga kamayib, "soliq xavfi" dasturlari asosida o'tkaziladigan soliq tekshiruvlarining samarasi yanada yuksaldi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ayrim sektorlarida tadbirkorlik

¹ Международная налоговая организация для практического сотрудничества и обмена знаниями по вопросам налогового администрирования

² Budjetnoma 2024-2026 "Yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan islohotlar.

subyektlariga imtiyoz va preferensiyalar berilganini hisobga olgan holda qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash va to‘lashning amaldagi tartibidagi mavjud bo‘lgan nomutanosibliklar barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun teng sharoitlarni ta‘minlashda qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘laqonli zanjirini yaratish imkoniyatini bermayapti³. Bunda amaliyotga salbiy ta‘sir etayotgan jihatlarini bartaraf etish borasida ilmiy tadqiqot olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq ma‘lumotlarni to‘g‘ri va aniq hisoblash, soliq imtiyozlaridan to‘g‘ri foydalanish, QQS, aksiz solig‘i va bojxona bojlarini undirish mexanizmlarini ishlab chiqish, soliq ma‘murchilini opimallashtirish hamda davlat byudjet i daromadlarining shakllantirishda yuqori fiskal salmoqqa ega bo‘lgan bilvosita soliqlarni undirish mexanizmlarini takomillashtirish va byudjet i daromadlarini oshirishda xizmat qiluvchi taklif, tavsiyalar keltirish va ularni amaliyotga tatbiq etish zarurligi tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2021-yil 24-avgustdagi PF-5755-son “Qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘muriyatchiligini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-iyuldagi 313-son “Alkogol va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalarini joriy etish to‘g‘risida”, 2021-yil 22-sentabrdagi 595-son “Soliq to‘lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Soliqlar va soliqqa tortishning nazariy asoslari sohasida iqtisodiyot nazariyasining klassik namoyondalari Sh.Adams, Dj.Keyns, U.Petti, A.Smit, D.Rikardo, hozirgi zamon xorijiy iqtisodchi olimlardan M.Alizadeh, S.Bryu, M.Blaug, Y.Gonglar, J.Zou, P.Samuelson, K.Makkonnel, G.Menkyu, M.Motallabi, F. Nitti va boshqalarning ilmiy asarlarida yoritilgan⁴.

³ “Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.06.2019 yildagi PF-5755-son

⁴ Адамс Ч. Влияние налогов на становление цивилизации / Чарльз Адамс ; пер. с англ. А. А. Столярова и А. А. Резвова. – Москва, Челябинск: Социум, Мысль, 2018., Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Гелиос АРВ, 1999. -352 с.; Alexander Odishelidze and Arthur Laffer. Pay to the Order of Puerto Rico. Allegiance Press, USA, 2004. – 455 p. Петти У. Трактат о налогах и сборах. Verbum sapienti – слово мудрым. Разное о деньгах. – М.: Ось-89, 1997. – 346 с.; Смит А. Исследования о природе и причинах богатства народов. Пер.с англ. – М.: Соцэкгиз, 1962. – кн. 5 - 620 с. Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Сочинения, том I. – М.: Государственное издательство политической литературы, 1955. – 360 с.; Alizadeh, Masoume Motallabi. Studying the Effect of Value Added Tax on the Size of Current Government and Construction Government. // Procedia Economics and Finance. Volume 36, 2016. 336-344 p.

Макконнелл К.Р., Брю С.Л., Флинн Ш.М. Economics. -М.: Инфра-М, 2011. – 1045 с.; Самуэльсон Пол А., Нордхаус Вильям Д. Экономика: Пер. с англ. – М.: Бином, 1999. -800 с.; Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономикс: принципы,

MDH davlatlarining iqtisodchi olimlari N.Artemov, B.Bescherev, Y.Golik, S.Ilovayskiy, A.Kamalyan, V.Panskov, A.Paskachev, V.Pushkaryova, A.Sokolov, V.Samofalov, N.Turgenev, N.Tyupakov, Yu.Shestakova S.Shovapskiy va boshqalar soliqlarni o'rganish tarixini va bilvosita soliq muammolarni ilmiy tadqiqotlarida yoritilgan⁵.

Raqamli texnologiyalar asosida soliq ma'murchiligi masalalarini bir qator olimlar, jumladan K.Anisina, B.Badmayeva, A.Belitskoy, V.Vaipan, L.Goncharenko, Ye.Yermakova, V.Popov, D.Klein, E.Kitsios, Ye.Kирова, Yu.Tyurina boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan⁶.

проблемы и политика. Пер. 16-го англ. изд. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 940 с.; Менкью Н.Г. Принципы экономикс. – СПб: Питер Ком, 1999. – 784 с.; Jingxian Zou, Guangjun Shen, Yaxian Gong. The effect of value-added tax on leverage: Evidence from China's value-added tax reform. // *China Economic Review*. Volume 54, April 2019.– Pages 135-146; Mohammad Alizadeh, Masoume Motallabi. Studying the Effect of Value Added Tax on the Size of Current Government and Construction Government. // *Procedia Economics and Finance*. Volume 36, 2016. Pages 336-344.; Нитти Ф. Основные приципи финансовой науки. 1907.- 248 с.

⁵Артемов Н.М. Понятие и юридическая природа таможенной пошлины / Н.М. Артемов // *Вестник Университета имени О.Е. Кутафина*. 2016. № 6. 86 с.; Бесчеревных В. В. Советское финансовое право: Учебник / под ред. В. В. Бесчеревных и С.Д. Цыпкина. М., 1982. 171 с.; Голик Е.Н. Налоги и косвенное налогообложение: учебное пособие. / Е.Н. Голик. – Ростов-н/Д.: ООО «Мини Тайп», 2011. – С. 50; 57; Иловайский С.М. Косенное обложение в теории и практип. Одесса. 1892.-81 с.; Камалян А.К. Система косвенного налогообложения как механизм государственного регулирования АПК: Монография / А.К. Камалян. – Воронеж: ФГОУ ВПО ВГАУ, 2009. –31 с.; Пансков В.Г. Налоги и налогообложение: Учебник и практикум для прикладного бакалавриата. Люберцы: Юрайт, 2016. 418 с.; Евстигнеев Е. Налоги, налогообложение и налоговое законодательство. – СПб: Питер, 2001. – 336 с.; Исаев А. Очерк теории и политики налогов. – М.: ООО «ЮрИнфоР-Пресс», 2003. – 270 с.; Пансков В., Князев В. Налоги и налогообложение: Учебник для вузов. – М.: МЦФЭР, 2003. – 336 с.; Паскачев А.Б. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. – М.: Высшее образование, 2008, -384 с.; Пушкирёва В. История финансовой мысли и политики налогов. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 256 с.; Соколов А. Теория налогов. – М.: ООО «ЮрИнфоР-Пресс», 2003. – 506 с.; Самофалов В. Косвенные налоги и подоходный налог. СПО., 1907. с.32.; Тургенев Н. Опыт теории налогов. – СПб.,1818. – 216 с.; Тюпаков Н.Н. Формирование налогового механизма распределения добавленной стоимости: теория, методология, практика: монография / Н.Н. Тюпакова. – Краснодар: КубГАУ, 2012. –С.151.; Шестакова Ю.Н., Тюпакова Н.Н // *Политематический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университета*. 2013.№92(08).; Шовапский С.И. Косвенное обложение в теории и практике. Одесса. 1892. С. 16.

⁶ Анисина К.Т. Цифровая экономика как инструмент эффективного взаимодействия участников финансовых правоотношений // *Налоговая система Российской Федерации в условиях развития цифровой экономики: правовые и экономические аспекты: Материалы Международной научно-практической конференции*. Москва, 30 ноября - 1 декабря 2018 г. / Под ред. И.А. Цинделиани. - М.: РГУП, 2019. 8-16 с.; Бадмаев Б.Г. Цифровые платформы в деятельности ФНС России // *Налоговая система Российской Федерации в условиях развития цифровой экономики: правовые и экономические аспекты: Материалы Международной научно-практической конференции*. Москва, 30 ноября - 1 декабря 2018 г. / Под ред. И.А. Цинделиани. - М.: РГУП, 2019. - 17- 29 с. Белецкая Ю.А. Возврат сумм излишне взысканных налогов // *Актуальные вопросы бухгалтерского учета и налогообложения*. - 2019. - № 8. -62-65 с.; Вайпан В.А. Правовое регулирование цифровой экономики // *Предпринимательское право. Приложение «Право и Бизнес»*, 2018.-№1. 17 с.; Попов В.В. Влияние цифровизации сферы налогообложения на сущность налога // *Цифровая экономика как вектор трансформации правосубъектности участников налоговых отношений в России и за рубежом. – Сборник научных трудов по материалам Международной научнопрактической конференции в рамках IV Саратовских финансово-правовых чтений научной школы Н.И. Химичевой. – 2019. – 152–155 с.; Гончаренко Л.И., Ермакова Е.А., Тюрина Ю.Г. и др. Цифровые технологии налогового администрирования: монография с грифом НИИ образования и науки / Под ред. И.А. Майбурова, Ю.Б. Иванова. – М.; ЮНИТИ- ДАНА, 2019. 263 с.; Кирова, Е.А. Трансформация налоговой системы России в условиях становления цифровой экономики / Е.А. Кирова, Н.Г. Морозова, А.С. Безверхий // *Вестник университета. – 2019. – № 7. – 118- 124 с.; Klein, Daniel and Ludwig, Christopher and Nicolay, Katharina, Internal Digitalization and Tax-efficient Decision Making (2020). ZEW – Centre for European Economic Research Discussion Paper. – № 20-051. – 41 p.; Kitsios Emmanouil, João Tovar Jalles, Verdier Genevieve. Tax Evasion from Cross-Border Fraud: Does Digitalization Make a Difference? // *IMF WORKING PAPERS. – Working Paper. – № 2020/245, November 2020. – 16 p.***

O‘zbekistonda soliqqa tortish amaliyotini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shayotgan mahalliy olim va amaliyotchi mutaxassislarimizdan M.S.Abishov, N.Ashurova, N.Artikov, E.Gadoyev, T.Malikov, Sh.Toshmatov, K.R.Hotamov ilmiy ishlarida bilvosita soliqlarning hisobi va amaliy jihatlari o‘z aksini topgan⁷.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘ liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlash-tirilishini ta’minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston Respublikasida bilvosita soliqlarni, jumladan QQS va aksiz soliqlarini undirish mexanizmlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu borada ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bilvosita soliqlar nazariyasi va soliqlarni raqamlashtirish tushunchasini yoritish;
soliq ma’urchiligini takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash;
soliq tizimida bilvosita soliqlarning, jumladan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i va bojxona bojarining fiskal samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlarini aniqlash;

raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali bilvosita soliqlarni undirish, hisobga olish, hisobotlarni to‘liq va to‘g‘ri qabul qilish va rasmiylashtirish, soliq imtiyozlaridan to‘g‘ri foydalanish yo‘nalishlarini aniqlash;

qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i va bojxona bojarining o‘ziga xos xususiyatlarini va ularning soliqlar tizimidagi o‘rni va samaradorligini aniqlash;

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetga bilvosita soliqlarning tushimiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish;

qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini o‘rnini to‘ldirish, hisob-kitob qilishning amaliy mexanizmining dolzarb muammolarini ochib berish;

O‘zbekiston Respublikasida aksiz soliqlarni qo‘llash va joriy qilishda jahon tajribasi, shuningdek sog‘liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari bilan mos kelishini aniqlash va aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek bilvosita soliqlarni undirishni takomillashtirish borasida ilmiy va amaliy tavsiyalar berish.

⁷ Abishov Bilvosita soliqlarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta’siri (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida) doktorlik dissttatsiyasiavtorefehati Тошкент – 2018; Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish / i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: BMA, 2018. – 40 b.; Artikov N.A. O‘zbekiston Respublikasida soliq ma’uriyatchiligi samarali faoliyatini ta’minlash. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun diss. avtoreferati. T.: 2022.-57b.; Gadoyev E.F va b. Bilvosita soliqlar: qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i. – Toshkent: «NORMA», 2011. – 327 b.; Ibragimov B.B. Soliq ma’uriyatchiligi: muammo va yechimlar. Monogr.T.: “Noshirlik yog‘dusi”, 2022. 226 b., Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – T.: Akademiya, 2002. - 204 b.; Toshmatov Sh.A. Qo‘shilgan qiymat solig‘i. Monografiya. – Toshkent.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 2004. -160 b. ; Hotamov K.R. “Bilvosita soliqlar hisobi, tahlili va auditini takomillashtirish” doktorlik dissttatsiyasiavtorefehati Тошкент – 2016.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatuvchi soliq to‘lovchilardan va davlat xizmati organlari bilvosita soliqlarni to‘lash va undirish bilan bog‘liq faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini bilvosita soliqlarni undirish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada guruhlash, tizimli qiyosiy tahlil, ekspert va taqqoslama tahlil, ma‘lumotlarni statistik ishlanma metodi, modellashtirish va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

soliq ma‘lumotlarini markazlashtirilgan tarzda real vaqtda to‘plash va tahlil qilish imkonini beruvchi “aqlli audit” tizimini joriy etish orqali qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirishda soliq tushumlari ($8\% \leq ST \leq 10\%$) hamda soliqqa oid aylanmalarni qamrab olish darajasi ($85\% \leq SA \leq 95\%$)ni oshirish asosida bilvosita soliqlarni undirish samaradorligini oshirish taklifi ishlab chiqilgan;

QQS bo‘yicha soliq to‘lovchining elektron hisob-fakturalari va moliyaviy aylanmalarini o‘zaro integratsiya qiluvchi “smart-kompensatsiya” algoritmini joriy etish asosida soliq to‘lovchilarning qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha salbiy farq summasini qaytarish va soliq summasi o‘rnini qoplashning tezlashtirilgan tartibi takomillashtirilgan;

avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari tomonidan haqiqatda realizatsiya qilingan dizel yoqilg‘isi miqdorini aksiz solig‘i hisobotida to‘liq aks ettirilishini raqamlashtirish orqali nazorat xarajatlarini avtomatik tahlil hisobidan 25% ga qadar qisqartiruvchi hisoblanmasdan qolgan dizel yoqilg‘isi miqdorini aniqlash uslubiyati taklif qilingan;

aksiz to‘lanadigan tovarlarni ishlab chiqarish, tahlil qilish va aylanmasini boshqarishni (ishlab chiqarish, aylanma, hisobdan chiqarish) “onlayn” rejimida raqamli markirovkalash Data Matrix kodi tizimiga o‘tish orqali aksiz solig‘i tushumlarini yiliga 12-15% gacha oshirish asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bilvosita soliqlarni undirish mexanizmlari qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini raqamlashtirishning afzalliklarini nazariy jihatdan asoslangan va undagi asosiy muammolar keltirilgan;

qo‘shilgan qiymat solig‘ini raqamlashtirishga o‘tish modeli ishlab chiqilgan;

bilvosita soliqlarni undirish, raqamlashtirish, hisobga olishdagi muhim muammolar va ularning bartaraf etish yo‘llari ko‘rsatib berilgan;

qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini noto‘g‘ri hisobga olinishi, soliq bazasini yashirish va muddati o‘tgan debitor qarzdorligi vujudga kelishi sabablari ko‘rsatib berilgan va ularni raqamlashtirish jarayonida bartaraf etishning ayrim yo‘llari bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning natijalarning ishonchliligi tadqiqot natijalarining tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma‘lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi,

keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda olingan va ilgari surilgan nazariy yondashuvlar, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan soliq tizimini ma‘murchiligini takomillashtirishga oid tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalarning O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi tomonidan mamlakatimizda soliq tizimi ma‘murchiligini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekiston Respublikasida bilvosita soliqlarni, jumladan QQS va aksiz soliqlarini undirish mexanizmlarini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar asosida:

soliq ma‘lumotlarini markazlashtirilgan tarzda real vaqtda to‘plash va tahlil qilish imkonini beruvchi “aqli audit” tizimini joriy etish orqali qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirishda soliq tushumlari ($8\% \leq ST \leq 10\%$) hamda soliqqa oid aylanmalarni qamrab olish darajasi ($85\% \leq SA \leq 95\%$)ni oshirish asosida bilvosita soliqlarni undirish samaradorligini oshirish taklifi Soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Soliq Qo‘mitasining 2025-yil 24-yanvardagi №16/1-09877-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi bilan soliq bazasini kengaytirish imkoniyati vujudga keldi va qo‘shilgan qiymat solig‘i tushumi o‘tgan yildagiga nisbatan 4,3%ga, raqamlashtirilishi darajasi 6,5%ga ko‘payib, xufiyona iqtisodiyot darajasi kamaygan;

QQS bo‘yicha soliq to‘lovchining elektron hisob-fakturalari va moliyaviy aylanmalarini o‘zaro integratsiya qiluvchi “smart-kompensatsiya” algoritmini joriy etish asosida soliq to‘lovchilarning qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha salbiy farq summasini qaytarish va soliq summasi o‘rnini qoplashning tezlashtirilgan tartibi takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-avgustdagi “Qo‘shilgan qiymat solig‘i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog‘liq soliq ma‘murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 489-sonli qarorida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Soliq Qo‘mitasining 2025-yil 24-yanvardagi №16/1-09877-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq to‘lovchilarga yanada qulayliklar yaratilib, soliq to‘lovchi shaxsiy kabinetiga qo‘shilgan qiymat solig‘i salbiy farq summasini qaytarib olish uchun alohida ariza taqdim etmasdan, soliq organlarini avtomatik ravishda to‘ldirilib xabardor qilinadi. Soliq qo‘mitasi murojaatlarni ma‘lumot olingan kundan boshlab umumiy tartibda 30 kun ichida, tezlashtirilgan tartibda esa 7 kundan kechiktirmay ko‘rib chiqadi. “AAA” toifadagi soliq to‘lovchilarga qo‘shilgan qiymat solig‘i salbiy farq summasini qaytarib olish uchun bir kun muddatda tekshiruvlarsiz avtomatlashtirilgan tartibda amalga oshirish imkoni yaratilgan;

avtomobillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari tomonidan haqiqatda realizatsiya qilingan dizel yoqilg‘isi miqdorini aksiz solig‘i hisobotida to‘liq aks ettirilishini raqamlashtirish orqali nazorat xarajatlarini avtomatik tahlil hisobidan 25% ga qadar

qisqartiruvchi hisoblanmasdan qolgan dizel yoqilg'isi miqdorini aniqlash uslubiyati Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 24-yanvardagi №16/1-09877-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari tomonidan realizatsiya qilingan dizel yoqilg'isi miqdorini aksiz solig'i hisobotida to'liq aks ettirilishini raqamlashtirish orqali hisoblanmasdan qolgan dizel yoqilg'isi miqdorini aniqlash imkoni yaratilgan;

aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarish, tahlil qilish va aylanmasini boshqarishni (ishlab chiqarish, aylanma, hisobdan chiqarish) "onlayn" rejimida raqamli markirovkalash Data Matrix kodi tizimiga o'tish orqali aksiz solig'i tushumlarini yiliga 12-15% gacha oshirish taklifi Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 24-yanvardagi №16/1-09877-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu tizim "Onlayn" rejimida markirovka kodlarini yaratib, markirovka kodlari berilganligi to'g'risida bildirishnoma markalash tizimida avtomatik hisobotlarni shakllantirilib, to'g'ridan-to'g'ri qo'llash uskunalari ishlatiladi hamda tovarlarni qabul qilishda markirovkalash kodi skanerdan o'tkazilib jo'natilgan hujjat bilan taqqoslab tovarlarning haqiqiyliги tekshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan 4 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta ilmiy maqola, shundan 4 tasi xorijiy va 2 tasi mahalliy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, 8 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 123 betni tashkil qiladi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ularning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Bilvosita soliqlarni undirishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida soliqlarni raqamlashtirishning bilvosita soliqlarni undirishdagi ahamiyati, afzalliklari, bilvosita soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni maqsadi va vazifalari nazariy jihatdan o'rganilgan.

Shuningdek bilvosita soliqlarni raqamlashtirish jarayonida undirishning xorij ilg'or tajribasining o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan.

Soliqlarning tizimini raqamlashtirish byudjetga soliq tushumlarining barqarorligi va to'liqligi, sifat darajasini, shuningdek davlat byudjetining daromad qismida bilvosita soliq tushumlarini, jumladan qo'shilgan qiymat solig'i miqdorini undiruvchanligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Qo'shilgan qiymat solig'i raqamlashtirish yetkazib beruvchilar va xaridorlarning butun zanjirini kuzatib borish, hisoblangan yoki chegirib tashlash uchun talab qilingan qo'shilgan qiymat solig'i miqdorini, xato va kamchiliklarni aniqlash, shuningdek soliq nazoratini avtomatik ravishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash, shuningdek, on-layn tekshirish imkonini beradi.



1-rasm. Soliq tizimini, qo'shilgan qiymat solig'ini raqamlashtirishning afzalliklari⁸

1-rasm tahliliga ko'ra soliq tizimini, qo'shilgan qiymat solig'ini raqamlashtirishning afzalliklari keltirilgan bo'lib ular quyidagilardan iborat:

soliq tizimini raqamlashtirish orqali soliqqa tortish shaffoflik oshirish, real vaqt rejimida mahsulotlarni sotish jarayonlarini nazorat qilish, hisoblash va to'lov to'g'risida davlatni avtomatik xabardor qilish, soliq to'lashdan qochish holatlarini tubdan bartaraf etadi;

soliq ma'murchiligida xarajatlarni kamaytirish, qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblashda inson omili ta'sirini cheklash, hisob fakturalar va hisobotlarni elektron qabul qilish orqali to'lovchilarga qulay sharoitlar yaratib xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi;


⁸ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.

ma'lumot va axborotlar qaytadan ko'rib chiqib tahlil qilish, qo'shilgan qiymat solig'ini bo'yicha soliq ma'murchiligini to'liq avtomatlashtirish, batafsil statistik ma'lumotlar olish, QQS bo'yicha davlat daromatlarini aniq, yuqori darajada prognoz qilish imkonini beradi;

qo'shilgan qiymat solig'ini raqamlashtirish hisob-kitob sohasidagi, aniq ma'lumot olish imkoniyatlari kengaytiriladi.

2-rasmda qo'shilgan qiymat solig'ini raqamlashtirishga o'tish modeli keltirilgan.

2-rasmdagi modelida ko'rsatilganidek, qo'shilgan qiymat solig'ini raqamlashtirishga o'tish uchun, avvalabor, raqamli qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini texnik xizmat ko'rsata oladigan telekommunikatsiya infratuzilmasini yaratishni nazarda tutadi. Xususan, zamonaviy raqamli qurilmalarda (operatsion tizim va texnik xususiyatlaridan qat'iy nazar) muammosiz ishlaydigan tabaqalashtirilgan dasturiy ta'minotni ishlab chiqishni talab qilinadi.



2-rasm. Qo'shilgan qiymat solig'ini raqamlashtirishga o'tish modeli⁹

Raqamli soliq ma'muriyatlari ma'lumotlarni talab qilganligi sababli, ular turli xil hisobot majburiyatlarini kiritadilar. Uchinchi tomon ma'lumotlaridan foydalanish, masalan, bank, platforma yoki mijoz ma'lumotlari - nafaqat soliq to'lovchilarning ma'lumotlarni qayta tekshirish, balki soliq deklaratsiyasini oldindan to'ldirish imkonini beradi. Ma'muriyatlar real vaqt rejimida hisobot berishni joriy qilmoqdalar:

⁹ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.


bunda nafaqat ma'lumot, shu bilan birga tezlik kerak, ba'zan esa tranzaksiya sodir bo'lgunga qadar hisobot berish majbur qilinadi. Elektron xizmatlar va chatbotlar yoki onlayn portallar singari boshqa ma'muriy soddalashtirish choralari ma'lumotlarni intensiv ravishda sarflaydi. Ma'lumot to'plashdan maqsad soliq yig'ishni yaxshilash va soliq to'lovchilar uchun rioya qilishni osonlashtirishdir.

Bilvosita soliq tovar va xizmatlar uchun narx yoki tarifga qo'shimcha haq sifatida belgilanadigan soliq turi hisoblanadi. Tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonaga egasi qo'shimcha narxda sotadi va daromadidan byudjetga soliq to'laydi. Bunda soliq to'lovchi korxonaga inkassator, xaridor bilvosita soliq to'lovchi hisoblanadi.

Bilvosita soliq to'lovchilari mahsulot ish, xizmatlarni yuklab yuboruvchilar bo'lib, aslida soliq yuki tovar, ish va xizmatlarni iste'mol qiluvchilar zimmasida bo'ladi. Bilvosita soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga qo'shimcha yuklanadi.

Bilvosita soliqlarning stavkasi asosli oshirilishi korxonaning moliyaviy faoliyatiga salbiy ta'sir qilmaydi. Agar bilvosita soliqning stavkasi asossiz oshirilgan taqdirda korxonalar tovarlarni sotishda mushkul ahvolga tushishi mumkin.

Bilvosita soliqlar to'lovchilari tovarlar ishlab chiqaruvchi va (yoki) realizatsiya qiluvchi, xizmatlar ko'rsatuvchi, ishlarni bajaruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar (yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar) soliq to'lovchilar hisoblanadi.



3-rasm. Bilvosita soliqlarning xususiyatlari¹⁰

¹⁰ Rasm muallif tomonidan shakllantirilgan.

Bilvosita soliqlar respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarni respublikadan tashqariga chiqib ketishini kamaytirib, mamlakatdagi tovarlarning ko‘payishiga imkon yaratadi. Shuningdek inflyatsiya sur‘atini ham pasaytirib turishga xizmat qiladi.

Bilvosita soliqlarning ijtimoiy, iqtisodiy, shuningdek fiskal xususiyatlari mavjud bo‘lib, 3-rasmda ularning xususiyatlari alohida ajratib ko‘rsatilganligi sababli, uning mohiyatini oydinlashtiradi.

3-rasmda keltirilganidek, bilvosita soliqlarning fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlarga ega bo‘lib, fiskal xususiyati davlat byudjetini shakllantirishda yuqori ulushga egalidir. Shu bilan birga bilvosita soliqlarning fiskal xususiyati mahsulot tannarxiga va inflyatsiya o‘shishiga ta‘sir qiladi, shuningdek yuqori rentabellikni ta‘minlaydi, bunda korxonalar mahsulotga qachalik ko‘p marja qo‘ysa, davlat shuncha ko‘p daromad oladi. Bilvosita soliqlar iqtisodiyotni tartibga soladi, bozor narxini muvozanatlashtiradi, mahsulot iqtisodiy tan olinishini belgilab beradi, shuningdek talabni tushurib natijada ishlab chiqaruvchi daromadini pasaytiradi. Soliqlarga tortiladigan tovarlar va xizmatlar soni muntazam ravishda oshib boradi. Bilvosita soliqlarning ijtimoiy xususiyati shundaki, aholi iste‘molini boshqaradi, jamiyatga keltiriladigan zarar ishlab chiqaruvchiga yuklanadi, soliqlar yashirin ravishda to‘langanligi sababli xaridor qancha to‘lashini bilmaydi va unga malol kelmaydi.

Bilvosita soliqlar X asr oxirlarida birinchi marta paydo bo‘lgan. Bilvosita soliqlar sayohat, yuk tashish, yo‘llar bo‘ylab mollarni haydash uchun olinadigan yo‘l to‘lovi bo‘lgan. Boshqa bir manbalarga ko‘ra, bilvosita soliqlar qadimgi dunyo davlatlari Tiberiy va Gay Grakki (miloddan avvalgi 162 - 133 va 153 -121 yillar) qadimgi Rim xazinasiga qullarni ozod qilish munosabati bilan yig‘imlar undirilgan.

Birinchi marta soliqlarning bilvosita va bevosita soliqlarga bo‘linishini XVII asr oxirida ingliz faylasufi Jon Lokk tomonidan ilmiy asoslangan bo‘lsada, bunday bo‘linish XVI asrda fransuz iqtisodchisi Jan Bodenning asarlarlarida soliq amaliyotida qo‘llanilganligi keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Bilvosita soliqlarni undirish mexanizmining tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, bojxona bojlarining undirish mexanizimi tahlillari keltirilgan.

Respublikamizda iqtisodiy o‘shishni izchil davom ettirilishi, fiskal siyosatning yuritilishi orqali barqarorlikni ta‘minlanishi hisobiga erishilmoqda.

2024-2026 yillarga mo‘ljallangan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar prognozi “O‘zbekiston – 2030” 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard AQSH dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish, kelgusi 7-yilda asosiy kapitalga 250 mlrd AQSH dollardan ortiq investitsiyalarni o‘zlashtirish va unda 110 mlrd AQSH dollardan ortiq xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, 2030-yilga borib yillik eksport hajmini esa 45 mlrd AQSH dollarga yetkazish, Davlat qarzini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 50 foizdan oshirmaslik vazifasini ta‘minlash maqsad qilingan. Prognozlarga ko‘ra O‘zbekiston

iqtisodiyoti 2025-2026 yillarda 6,4 foizgacha o‘shishi ko‘zga tutilgan¹¹.

Soliq tizimida bilvosita soliqlar byudjet daromadlarini shakllantirish uchun yuqori fiskal salohiyatga ega bo‘lganligi uchun muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonni quyidagi jadval orqali ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval
Bilvosita soliqlar tushumlarining 2019-2023 yillar dinamikasi tahlili¹²

(mlrd. so‘m)

Ko‘rsatkichlar	yillar					2023 nisbatan farq	%
	2019	2020	2021	2022	2023		
Bilvosita soliq tushumlari	37368,8	33410,8	43170	71399,6	83325,8	11935,6	95,8
QQS	23660,7	20 485,6	25 572,1	52189,4	57885,3	5695,9	67,2
Aksiz solig‘i	11603,0	10 838,8	12 778,9	13455,0	15834,4	2379,3	17,7
Bojxona boji	2 105,1	2 086,4	4 819,0	5745,7	9606,1	3860,4	10,9

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2019-yilga nisbatan 2023-yilda bilvosita soliq tushumlari 2 baravarga oshgan. 2023-yilda bilvosita soliq tushumlari 83,32 trillion so‘mga yetib, shundan qo‘shilgan qiymat solig‘ining ulushi 57,9 trillion so‘m, aksiz solig‘i 15,8 trillion so‘mni, bojxona boji 9,6 trillion so‘m bo‘lib, respublika bo‘yicha jami 95,8 foizni, shundan QQS 67,2 foizni, aksiz solig‘i 17,7 foizni, bojxona boji 10,9 foizni tashkil etadi. 2023-yilda 2022-yilga nisbatan 11935,6 trillion so‘m farq mavjud.

2-jadval
2020-2023-yillarda QQS to‘lovchilari, realizatsiya aylanmalari, hisoblangan hamda byudjet ga to‘langan to‘lovlar tahlili¹³

(mlrd so‘m) va (%)da

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar			
		2020	2021	2022	2023
1.	To‘lovchilar soni	113 566	143 034	175 604	187868
2.	Jami realizatsiya aylanmalari	785 989,6	1047986,2	1 397314,9	788114,1
3.	Hisobga olinadigan QQS	93 066,2	116 332,7	136 862,0	68 605,5
4.	Hisoblangan QQS	116 483,5	133 889,1	148 765,7	72 110,6
5.	Byudjet ga to‘langan	20 485,6	25 572,2	32 812,0	15 849,0
6.	YAIM nisbatan (%)	6,7	7,2	8,0	7,4
7.	Undiruvchanlik, %	0,0	0,0	66,3	72,6
8.	Guvohnoma nafaolliги sababli hisobga olinmagan QQS	x	x	1 715,0	627,0
9.	To‘lab berilgan QQS	x	x	484,9	125,4
10.	Ortiqcha to‘lov	x	x	859,8	332,3
11.	Soliq qarzi	x	x	370,3	169,3

2-jadval ma‘lumotlari bo‘yicha 2020-yilda QQS to‘lovchilar soni 113566 ta, 2023-yilga kelib, 187868 ta bo‘lib, keskin oshgan. Jami realizatsiya qilish aylanmalari

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi va www.stat.uz sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

¹² O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi va www.stat.uz sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi va www.stat.uz sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2020-yilga nisbatan qarib 2 baravar oshib, 2023-yil 788114,1 mlrd. soʻmni tashkil etadi. Byudjetga toʻlangan QQS 2020-yilga nisbatan 2022-yilda 12326,4 mlrd. soʻmga koʻpaygan. 2023-yilda YAIMga nisbatan 7,4 foizni, undiruvchanlik 72,6 foizni tashkil etadi. Guvoohnoma nafaolligi sababli hisobga olinmagan QQS 627,0 mlrd. soʻmni tashkil etadi.

3-jadval Respublikada tarmoqlar boʻyicha QQS qarzdorligi mavjud korxonalar tahlili¹⁴

(mlrd soʻm)

№	Tarmoq nomi	Soliq qarzi mavjud korxonalar				Farqi (+;-)		Oʻsish surʼati (%)	
		01.01.2023-yil holatiga		01.07.2023-yil holatiga		soniga nisbatan	summaga nisbatan	soniga nisbatan	summaga nisbatan
		soni	summa	soni	summa				
Jami		39 252	4 953,5	33226	5 969,6	-6 026	1 016,1	85	120,5
1.	Axborot va aloqa	189	7,9	211	26,9	22	19,0	112	338,6
2.	Ishlab chiqarish	2 343	412,1	2 492	645,7	149	233,6	106	156,7
3.	Qurilish	4 066	730,1	4 951	964,0	885	233,9	122	132,0
4.	Savdo	5 484	1 909,1	6 200	2862,8	716	953,7	113	150,0
5.	Tashish va saqlash	534	76,2	582	234,4	48	158,2	109	307,5
6.	Xizmat koʻrsatish	1 354	123,6	1 309	149,2	-45	25,6	97	120,7
7.	Qishloq xoʻjaligi	23 648	1 248,4	16118	760,5	-7 530	-487,9	68	60,9
8.	Moliya va sugʻurta	50	6,9	68	9,0	18	2,1	136	130,6
9.	Togʻ kon sanoati	211	140,3	313	178,1	102	37,8	148	126,9
10.	Boshqalar	1 373	298,9	982	139,0	-391	-159,9	73	46,5

3-jadvaldagi Respublikadagi tarmoqlar boʻyicha QQS qarzdorligi tahlili shuni koʻrsatadiki, Respublikadagi jami sohalar boʻyicha 01.01.2023 yil holatiga 39252 ta korxonaning 4953,5 mlrd.soʻm, 01.07.2023-yil holatiga 33226 ta korxonaning 5969,6 mlrd.soʻm QQS qarzdorligi m 1016,1 mlrd.soʻmga koʻpayib, oʻsish surʼati 120,5 foizni tashkil etgan.

4-jadval maʼlumotlari koʻrsatishicha, Respublika boʻyicha jami 323 ta QQS toʻlovchi tomonidan 119303,7 mln. soʻm QQS notoʻgʻri hisobga olingan. Jami 275ta QQS toʻlovchining 106129,2 mln. soʻm muddati oʻtgan debitor qarzdorligi mavjud boʻlib, shundan 48 tasi intizomli soliq toʻlovchi roʻyxatida mavjud emas. Qoraqalpogʻiston Respublikasida 8 ta QQS toʻlovchi tomonidan 242,8 mln. soʻm QQS notoʻgʻri hisobga olingan. Shundan 8 ta QQS toʻlovchining 242,8 mln. soʻm muddati oʻtgan debitor qarzdorligi mavjud.

Aksiz soligʻi davlat daromadlari manbai sifatida davlat byudjetining shakllanishida muhim rol oʻynaydi. Hozirgi vaqtda aksiz soligʻi barcha mamlakatlarda

¹⁴ Oʻzbekiston Respublikasi Soliq qoʻmitasi va www.stat.uz sayti maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

ularning moliyaviy resurslarini shakllantirishga, shuningdek bozordagi nosozliklarni bartaraf etishdagi ta'siri tufayli qo'llaniladi. Aksiz solig'i davlat byudjetga tez tushishi sababli xarajatlarni tezda moliyalashtirish imkonini beradi.

4-jadval

Respublika va viloyatlar kesimida QQS summasini noto'g'ri hisobga olgan subyektlar tahlili¹⁵

(2023-yil uchun, mln.so'mda)

№	Hudud nomi	Noto'g'ri hisobga olingan QQS		shundan,			
				Muddati o'tgan debitor qarzdorligi mavjud subyektlar		Intizomli soliq to'lovchi ro'yxatida bo'lmagan subyektlar	
		soni	summa	soni	summai	soni	summasi
Respublika bo'yicha jami		323	119303,7	275	106129,2	48	13 174,5
1.	Qoraqalpog'iston R.	8	242,8	8	242,8	0	0,0
2.	Andijon viloyati	29	36 985,0	26	36 887,8	3	97,2
3.	Buxoro viloyati	21	8 340,4	14	7 473,2	7	867,3
4.	Jizzax viloyati	5	59,5	5	59,5	0	0,0
5.	Qashqadaryo viloyati	14	1 237,1	12	906,8	2	330,3
6.	Navoiy viloyati	6	139,1	6	139,1	0	0,0
7.	Namanagan viloyati	25	3 659,6	21	3 546,2	4	113,4
8.	Samarqand viloyati	37	3 449,6	33	3 239,3	4	210,2
9.	Surxondaryo viloyati	6	97,4	6	97,4	0	0,0
10.	Sirdaryo viloyati	5	491,1	5	491,1	0	0,0
11.	Toshkent viloyati	34	6 679,5	29	6 535,3	5	144,2
12.	Farg'ona viloyati	43	5 673,1	39	4 201,4	4	1 471,6
13.	Xorazm viloyati	3	489,8	3	489,8	0	0,0
14.	Toshkent shahar	58	7 224,3	44	3 859,2	14	3 365,1

5-jadval ma'lumotlari tahlili ko'rsatadiki, 2023-yilda 2022-yilga nisbatan hisoblangan jami aksiz solig'i 232 mlrd.so'mga va aksiz solig'i tushumi 23 mlrd.so'mga oshgan. Shundan alkogol mahsulotlari uchun 2023-yilda 2022-yilga nisbatan hisoblangan jami aksiz solig'i 30 mlrd.so'm ko'p bo'lib, to'langan aksiz solig'i 135 mlrd.so'mga kamaygan. Benzin turlari bo'yicha 2023-yilda 2022-yilga nisbatan hisoblangan jami aksiz solig'i 21 mlrd.so'm ko'p bo'lib, to'langan aksiz solig'i 12 mlrd.so'mga kamaygan. EKO-Dizel, aviakerosin, suyultirilgan gaz uchun ham to'lanib aksiz soliqlari kamaygan. Mobil aloqa xizmati 2023-yilda aksiz solig'i stavkasi 5% ga kamaytirilgan bo'lsada, 2022-yilga nisbatan hisoblangan jami aksiz solig'i 76 mlrd.so'mga, to'langan aksiz solig'i 252 mlrd.so'mga kamaygan.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi va www.stat.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

**Byudjet ga hisoblangan va undirilgan aksiz solig‘i solinadigan mahsulotlar
tahlili¹⁶(mlrd so‘m)**

	Mahsulot nomi	2022-y.		2023-y.		Farqi	
		Hisoblangan	to‘langan	Hisoblangan	to‘langan	Hisoblangan	to‘langan
1.	Alkogol mahsulotlari	582	759	610	624	30	-135
	Aroq	527	693	555	568	28	-126
	Kon‘yak	9	11	9	10	0	-1
	Tabiiy vino	1	1	1	1	0	-0
	Shampan vinosi	0	0	0	0	0	-0
	Spirt	32	39	35	35	3	-4
	Tabak	726	783	909	911	183	128
	Pivo	125	106	141	100	16	-7
	Tabiiy gaz	1 961	2 078	1 887	2 324	-74	247
	Siqilgan gaz	37	46	33	29	-4	-17
2.	BENZIN jami	99	124	120	112	21	-12
	Benzin A-80	83	103	101	93	18	-10
	Avtobenzin Ai-91	16	20	19	18	3	-3
	Avtobenzin Ai-95	0	0	1	1	0	0
	Dizel yoqilg‘isi	25	27	66	62	41	36
	EKO-Dizel	45	73	38	35	-7	-38
	Aviakerosin	10	15	11	11	1	-4
	Motor yog‘i	1	1	1	2	0	0
3.	Realizatsiya jami	257	283	317	327	60	45
	Benzin (AZS)	75	89	104	105	29	16
	Dizel yoqilg‘isi (AZS)	159	171	196	203	37	32
	Suyultirilgan gaz	19	18	11	11	-7	-7
	Siqilgan gaz	4	4	5	8	1	3
	Polietilen granula	118	123	158	155	40	33
	Mobil aloqa xizmati	592	793	516	541	-76	-252
	Jami	4 578	5 210	4 810	5 233	232	23

6-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, davlat byujetiga bojxona to‘lovi tushumi miqdori -yildan-yilga o‘shib kelmoqda. 2019-yilda 17100,0 mlrd. so‘mdan 2023-yilda 58400,0 mlrd. so‘m, oldingi yillarga nisbatan ko‘paygan. Davlat byujetiga bojxona to‘lovi tushumining ulushi 2019-yilda 15,3 %dan 2023-yilda 25,2 foizga ko‘paygan. Shuningdek to‘lovga tortilgan import 23,3 AQSH dollariga oshgan.


Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bojxona stavkalarining o‘zgarishi, chet-el valyutasining kursi ko‘tarilganligi, bojxona tushumlarini hisob-kitob qilish, undirish ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi, hisob-kitob qilish avtomatlashtirilganli, shuningdek bojxona to‘lovlarini undirish bo‘yicha qabul qilingan islohotlar imtiyozlar qo‘llanilganligi bojxona tushumlarining ko‘payishiga samarali ta’sir ko‘rsatgan.

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi va www.stat.uz sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2019-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjet iga bojxona organlari tomonidan undirilgan bojxona to‘lovlari tahlili¹⁷

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	Davlat byujetiga bojxona to‘lovi tushumi miqdori (mlrd so‘mda)	17100,0	2723,0	33226,0	46034,4	58400,
2.	Ulushi %da	15,3	18,6	20,2	22,8	25,2
3.	Jami import AQSH dollarida	21,8	19,9	23,7	28,2	36,7
4.	Shundan to‘lovga tortilgan import	7,1	11,6	16,4	20,1	27,5
5.	To‘lovga tortilmagan import	14,7	8,3	7,3	8,1	9,2

4-rasmda ko‘rinib turganidek 2023-yildavlat byudjetiga o‘tkazilgan bojxona to‘lovlari katta qismi 80,0%i QQS, 16,1%i import bojxona bojiga, 3,9%i bojxona yig‘imlari va boshqa to‘lovlarga to‘g‘ri keladi.



4-rasm. 2019-2023 yillarda Davlat byudjet iga o‘tkazilgan bojxona to‘lovlari tarkibi tahlili (%da)¹⁸

Ilmiy tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, bojxona organlari tomonidan undirilgan QQS 2023-yilda 2019-yilga nisbatan 26663,8 mlrd. so‘m (2,4 baravarga), aksiz solig‘i 3632,4 mlrd. so‘m (1,3 baravarga), bojxona tomonidan tovarlarni rasmiylashganligi uchun yig‘im 829,6 mlrd. so‘m, ya‘ni 2,2 baravarga o‘sgan. Shuningdek boshqa yig‘imlar ham yildan yilga o‘sib kelmoqda.

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyotn va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyotn va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

7-jadval

2019-2023-yillarda bojxona organlari tomonidan undirilgan QQS, aksiz solig‘i va boshqa yig‘imlar tahlili¹⁹

(mlrd so‘m)

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar				
		2019	2020	2021	2022	2023
1.	QQS	18874,0	20027,0	27284,0	38689,0	45547,8
2.	Aksiz solig‘i	9667,2	10899,2	12779	13077,2	13299,6
3.	Tovarlarni rasmiylashtirish uchun bojxona yig‘imi	670,5	723,9	936,5	1208,1	1500,1
4.	Tovarlarni omborda saqlanganlik uchun yig‘im	1,2	3,0	12,7	0,15	0,18
5.	Bojxona bilan hamkorlikda kuzatish uchun to‘lov	9,3	13,6	25,4	42,9	52,3
6.	Boshqa yig‘imlar	3,9	0,09	4,7	10,6	12,8


Bunday natijalariga erishishga bojxona stavkalarining o‘zgarishi, chet-el valyutasining kursi ko‘tarilganligi, shuningdek, avtomatlashtirish va xodimlarning malakasi oshishi sabab bo‘lgan.

Dissertatsiyaning **“Bilvosita soliqlar undirishning mexanizmini raqamlashtirish jarayonida takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida bilvosita soliqlar undirishning mexanizmlarini raqamlashtirish orqali soliq tushumlarini ko‘paytirish masalalari, hamda bilvosita soliqlar bo‘yicha soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Soliq ma‘murchiligida zamonaviy vositalar eng asosiysi raqamli texnologiyalar bo‘lib, ular katta ma‘lumotlar (Big Data), sun‘iy intellekt, neyron tarmoqlar, bulutli saqlash va ma‘lumotlarni qayta ishlash singari texnologiyalardan iborat. Elektron xizmatlar soliq to‘lovchilarning shaxsiy kabineti, kontragent ma‘lumoti, shaffof biznes, IIN haqida ma‘lumotlari, shuningdek soliq boshqaruvi vositalari turli loyihalar, jumladan onlayn kassa apparati, onlayn monitoring, avtomatik almashinuv, elektron soliq ma‘lumotlari soliq ma‘murchiligini takomillashuvining muhim vositasi bo‘lib, soliq undiruvchanligini oshiradi.

Quyidagi 5-rasmda raqamlashtirishning QQS undiruvchanligiga ta‘siri keltirilgan.

¹⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.



5-rasm. Raqamlashtirishning QQS undiruvchanligiga ta'siri²⁰

5-rasmda ko'rinib turganidek, soliq tizimini raqamlashtirish orqali QQS undiruvchanligini oshirish maqsadida soliq rejimini, soliqni raqamlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish va axborot tizimlari majmuasi to'liq yagona platformaga o'tkazilishi imkoniyati yaratadi. Tashqi manbalar orqali QQS ma'lumotlarini qayta ishlash imkoniyati, ijtimoiy ma'suliyatni oshirish tufayli soliq bazasini, soliq to'lovchilar haqida ma'lumotlarning kengaytirish imkoniyatlarini oshiradi. Shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va tezkor tahlil qilish tizimlari kengayadi, xufiyona aylanmalar darajasi qisqaradi, ma'lumotlarni qayta ishlash natijasida bozor narxlarini tahlil qilish hamda prognozlash imkoniyatini yaratadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, soliq organlarining axborot tizimlari majmuasi to'liq yagona platformaga o'tkazilishi ma'lumotlarni kiritish, to'plash, tahlil qilish tizimlari optimallashtiriladi, ma'lumotlar bazasida katta yuklanishlarning oldi olinadi, soliq to'lovchilarning hisobot topshirish jarayoni yengillashadi. Muallifning fikricha, inson omili aralashuvini cheklash, katta ma'lumotlarni qayta ishlash, texnologiyalari orqali to'liq va aniq hisob tizimi shakllantirilib, QQS to'lovchilar tomonidan undirilgan yoki ortiqcha to'langan QQS to'lovlari faktlarini aniqlash natijasida, soliq ma'murchilini QQS solig'ini undirishni takomillashtirish imkonini beradi.


²⁰ Muallif tomonidan tuzilgan

Ortiqcha to‘langan QQS summalarini qoplash, hisobga olish yoki qaytarish mexanizmining dolzarb muammolari²¹

QQS funksiyalari	QQS funksiyalarini bajarishdagi muammolar	Muammolarning yuzaga kelishi sababi
QQS to‘lovchilar tomonidan undirilgan yoki ortiqcha to‘langan QQS to‘lovlari faktlarini aniqlash	Olingan ma‘lumotlarni solishtirishdagi qiyinchilik va katta hajmdagi ma‘lumotlarni qo‘lda qayta ishlash zarurati	Ma‘lumotlarni qayta ishlash texnologiyalarining yetishmasligi va soliq axborot tizimi elementlarining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi
Aniqlangan faktlar to‘g‘risida soliq to‘lovchilarni xabardor qilish va ulardan ushbu faktlarni aniqlash uchun arizalarni qabul qilish	O‘zaro aloqa muddatining uzoqligi va noaniqligi, QQS to‘lovchilarning arizalari va soliq deklaratsilarining ko‘pligi va aniqlash qiyinligi	Elektron aloqaning etishmasligi, hamda QQS to‘lovchilarning arizalari va deklaratsiyasini elektron tarzda olish va ko‘rib chiqish tizimining yo‘lga qo‘yilmaganligi
Ortiqcha undirilgan yoki ortiqcha to‘langan QQS to‘lovlari faktlarini tekshirish, QQS to‘lovlarni qoplash, hisobgan yoki qaytarishni aniqlash	Kameral tekshiruvlarini o‘tkazishdagi qiyinchiliklar va qog‘oz shaklida QQS hisobotini qabul qilinishini	Soliq axborot tizimi elementlarining yetarli darajada integratsiyalanmaganligi; - Katta ma‘lumotlarni qayta ishlash texnologiyalarining yetishmasligi
Ortiqcha undirilgan yoki ortiqcha to‘langan QQS to‘lovlarining kerakli shartlari va cheklovlarini aniqlash	Turli manbalardan olingan ma‘lumotlarni solishtirishdagi va foizlarni hisoblashdagi qiyinchiliklar	Ma‘lumotlarni qayta ishlash texnologiyalarining yetishmasligi va soliq axborot tizimining yetarli integratsiyalanmaganligi

8-jadvalda ko‘rinib turganidek, QQS to‘lovchilar tomonidan undirilgan yoki ortiqcha to‘langan QQS to‘lovlari faktlarini aniqlashda, olingan ma‘lumotlarni solishtirishdagi qiyinchilik va katta hajmdagi ma‘lumotlarni qo‘lda qayta ishlash zarurati yuzaga keladi. Ushbu muammolar ma‘lumotlarni qayta ishlash texnologiyalarining yetishmasligi va soliq axborot tizimini yetarli darajada integratsiyalashmaganligi sababli yuzaga kelgan. Aniqlangan faktlar to‘g‘risida soliq to‘lovchilarni xabardor qilish va ulardan ushbu faktlarni aniqlash uchun arizalarni qabul qilishda QQS to‘lovchilarning arizalari va soliq deklaratsilarining ko‘pligi va aniqlashdagi qiyinligi singari muammolar mavjud bo‘lib, ushbu elektron aloqaning yetishmasligi, hamda QQS to‘lovchilarning arizalari va deklaratsiyasini elektron tarzda olish va ko‘rib chiqish tizimining yo‘lga qo‘yilmaganligi sabab bo‘lgan. Shuningdek, ortiqcha undirilgan yoki ortiqcha to‘langan QQS to‘lovlari faktlarini tekshirish, QQS to‘lovlarni qoplash, hisoblash yoki qaytarishni aniqlash uchun kameral tekshiruvlarini o‘tkazishdagi qiyinchiliklar va turli manbalardan olingan ma‘lumotlarni solishtirishdagi va foizlarni hisoblashdagi qiyinchiliklar mavjud. Bunday qiyinchiliklar soliq axborot tizimini integratsiyalanmaganligi, hamda ma‘lumotlarni qayta ishlash texnologiyalarining yetishmasligi oqibatida yuzaga kelgan.

²² Muallif tomonidan tuzilgan.



6-rasm. QQS undirishdagi asosiy muammolar va ularning yuzaga kelish sabablari²²

Muallifning fikricha, yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun soliq axborot tizimi to'liq integratsiyalashtirish va ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyalarining yo'lga qo'yish orqali bartaraf etish mumkin.

6-rasmda asosiy muammolar hamda muammo tavsifi keltirilgan bo'lib, ushbu muammolarni bartaraf etish yo'llari bo'yicha takliflar va mulohazalarimizni keltiramiz.

“QQS summasi o'rnini qoplash tartibi to'g'risida nizom”da soliq summasini qoplashning tezlashtirilgan tartibida qoplash uchun arizada ko'rsatilgan soliq summasi soliq to'lovchiga to'liq hajmda yetti kun ichida qoplab berilishi, bunda qoplanishi uchun arizada ko'rsatilgan soliq summasi asoslantirilganligini kameral soliq tekshiruvi amalga oshirilishi belgilangan. Ya'ni, tezlashtirilgan tartib tatbiq etiladigan to'lovchilarga soliqning o'rnini qoplab berilgandan keyin kameral soliq tekshiruvi

²² Muallif tomonidan tuzilgan.

o'tkazilishi lozim va soliq summasi noto'g'ri qaytarilganligi aniqlangan hamda soliq to'lovchi faoliyatini to'xtatgan hollarda, soliq summasini byudjetga qayta undirishda muammo yuzaga keladi.

Bu muammoni bartaraf etish uchun, amaldagi qonunchilikka soliq summasi o'rnini qoplashning tezlashtirilgan tartibi o'z ishlab chiqarish quvvatlariga (eksport qilingan mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur binoinshoot va asbob-uskunalar) ega bo'lgan eksportchi korxonalar hamda asosiy vositalar xarid qilgan soliq to'lovchilarga nisbatan qo'llanilishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritish, shuningdek salbiy farq summasi tovarlar qoldig'i hisobidan yuzaga kelgan hollarda ketma-ket keladigan 3 ta hisobot davri yakuni bilan murojaat qilishi va asoslangan hollarda soliq summasi o'rni qoplanishi to'g'risidagi o'zgartirish va qo'shimchalarni Vazirlar Mahkamasing qaroriga kiritish lozim deb hisoblaymiz.


QQS undirishdagi asosiy muammolardan QQS zanjiri bo'yicha byudjetga to'lanmagan soliqning o'rnini byudjetga qaytarish bo'lib, ushbu muammoni bartaraf etish uchun soliq to'lovchi va unga tovarlarni (xizmatlarni) yetkazib berish bo'yicha operatsiyalar ketma-ketligida ishtirok etgan kontragentlar tomonidan QQS hisoblanmaganda yoki to'lanmagan hollarda, ushbu kontragentlardan hisobga olingan soliq summasi qaytariladigan soliq summasidan chegirib qolinishini nazarda tutuvchi norma kiritish, shuningdek, soliq to'lovchi haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha elektron hisobvaraqa-fakturada ko'rsatilgan soliq summasini yagona g'azna hisobvaraqa'iga to'lashi va ushbu to'langan soliq summasini hisobga olishga haqli bo'lishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritish lozim deb hisoblaymiz.

QQS undirishdagi yana bir asosiy muammo faktura rasmiylashtirmasdan hisobotlarda qoldiq sifatida ko'rsatilishi, hamda rasmiylashtirilgan faol shartnomalar bo'yicha hisobvaraqa-fakturalar muddatida rasmiylashtirilmasdan qolinmoqda.

Muallifning fikricha, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun shartnomalarni korxonaning QQS hisobotida onlayn shakllantirish, shuningdek ketma-ket ikki oy va undan ortiq hisobot davrida tovarlar qoldig'i hisobiga qo'shilgan qiymat solig'idan salbiy farq hisoblangan soliq to'lovchilarni shubhali mahsulot qoldiqlarni aniqlash bo'yicha mezonlar orqali segmentlarga ajratish, hamda shubhali soliq to'lovchilarda soliq nazorati o'tkazish orqali bartaraf etish maqsadga muvofiq.

QQS undirishda soliq organlari va soliq to'lovchi o'rtasida axborot almashinuvini to'liq yo'lga qo'yilmaganligi uchun ham muammoli vaziyatlar vujudga kelmoqda.

Muallifning fikricha, muammoning yechimi sifatida Soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasini Bojxona qo'mitasi va Markaziy bank bilan integratsiya qilish orqali soliq to'lovchilardan ortiqcha hujjatlar talab qilinishiga barham berish, shuningdek zamonaviy texnologiyalaridan foydalanib soliq organlari va soliq to'lovchi o'rtasida axborot almashinuvini yo'lga qo'yish, soliq xizmati va soliq to'lovchilar o'rtasidagigi yagona hisobot standartini ishlab chiqish va o'zaro munosabatlarni soddalashtirish, QQS to'lovchilarning arizalari va deklaratsiyasini elektron tarzda olish va ko'rib chiqish lozim.



7-rasm. Bilvosita soliqlarni undirish, raqamlashtirish, hisobga olishdagi muhim muammolar va ularning echimi²³

7-rasmda bilvosita soliqlarni undirish, raqamlashtirish, hisobga olishdagi muhim muammolar va ularning tasnifi keltirilgan bo'lib, ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va mulohazalar keltirilgan.

Bilvosita soliqlarni undirishdagi asosiy muammolardan biri undirilgan QQS to'lovlari faktlarini aniqlashda ma'lumotlarni qayta ishlash, texnologiyalarining yetishmasligi va soliq axborot tizimi elementlarining yetarli darajada integratsiyalashmaganligidir.

Bu muammoni bartaraf etish uchun soliq qo'mitasining ma'lumotlar bazasini soliq organi boshqaruvi, xo'jalik yurituvchi subyektlar (jismoniy va yuridik shaxslar), moliya-kredit institutlari bilan soliq qonunchiligi asosida, ishonchnoma asosida, fuqarolik shartnomasi asosida integratsiya qilish, ma'lumotlarni almashish yo'lga qo'yish zarur.

Navbatdagi muammolardan biri, soliq to'lovchilarning soliq imtiyozlaridan noto'g'ri foydalanishidir. Muallifning fikricha, ushbu muammoni bartaraf etish uchun soliq savodxonligi va madaniyatini zamonaviy texnologiyalar yordamida oshirish, soliq to'lovchilarga tushuntirishlar olib borish, soliq to'lovchilar soliqlarni vaqtida to'lash orqali turli jarimalarga tortilishini kamaytirish, xodimlarning malakasini oshirish uchun o'quv seminarlari tashkillashtirish, muhim hujjatlarning yangi

²³ Muallif tomonidan tuzilgan.

formatini ishlab chiqish, joriy qilish va amalda qo'llash, shuningdek, qonunchilikdagi nomuvofiqliklar, raqamli iqtisodiyotdagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarning mavjud emasligi, soliq undirishdagi texnologik salohiyatning nomutanosibligi sababli, amaldagi qonun hujjatlariga yangi tartibga soluvchi hujjatlar ishlab chiqish va joriy qilish maqsadga muvofiq.

Aksiz solig'i bo'yicha muammolardan biri aksiz solig'ini haqiqatda realizatsiya miqdorini aniqlash bo'lib, ushbu muammo yechimi sifatida quyidagi avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari tomonidan haqiqatda realizatsiya qilingan dizel yoqilg'isi miqdorini aksiz solig'i hisobotida to'liq aks ettirilishini raqamlashtirish orqali hisoblanmasdan qolgan dizel yoqilg'isi miqdorini aniqlash uchun algoritmni tavsiya etamiz:

A	V	C
Aksiz solig'i hisoboti (qat'iy stavkalar qo'llaniladigan aksiz solig'i (hisob kitobi) 23 satr 4-ustun	Aksiz solig'i xisoboti (qat'iy stavkalar qo'llaniladigan aksiz solig'i (hisob kitobi) 24 satr 4-ustun	Aksiz solig'i xisobotida aks ettirilgan jami dizel yoqilg'isi miqdori 1-bandda ko'rsatilgan ko'rsatkich 2-bandda ko'rsatilgan ko'rsatkichga qo'shish orqali aniqlanadi
D	C	E
Ushbu davr davomida (oylik) EHF hamda onlayn rasmiylashtirilgan dizel yoqilg'isi MXIK (0271000100) orqali jamlanadi	Aksiz solig'i xisobotida aks ettirilgan jami dizel yoqilg'isi miqdori 1-bandda ko'rsatkisini 2-bandda ko'rsatilgan ko'rsatkichga qo'shilgan	Hisobotida aks ettirmasdan qolgan dizel yoqilg'isi miqdori
E	SS	F
Hisobotida aks ettirilgan dizel yoqilg'isi miqdori	Soliq stavkasi	Hisoblanmasdan qolgan aksiz solig'i summasi

Tadqiqot natijalariga ko'ra hisoblanmasdan qolgan aksiz solig'i quyidagi formulalar orqali aniqlaymiz:

$$C = A + V;$$

$$E = D + C$$

$$F = E * SS.$$

bu yerda:

A – aksiz solig'i hisoboti 2-ilova (qat'iy stavkalar qo'llaniladigan aksiz solig'i (hisob-kitobi) 23-satr 4-ustun ko'rsatkichlari korxonada kesimida jamlanadi;

V – aksiz solig'i hisoboti 2-ilova (qat'iy stavkalar qo'llaniladigan aksiz solig'i (hisob-kitobi) 24-satr 4-ustun ko'rsatkichlari (1000) ga ko'paytirilib korxonada kesimida jamlanadi;

C – aksiz solig'i hisobotida aks ettirilgan jami dizel yoqilg'isi miqdori (1-bandda ko'rsatilgan ko'rsatkich 2-bandda ko'rsatilgan ko'rsatkichga qo'shish orqali aniqlanadi);

D – (oylik) EHF xamda onlayn rasmiylashtirilgan dizel yoqilg'isi MXIK (0271000100) orqali jamlanadi (D);

E – Hisobotida aks ettirmasdan qolgan dizel dizel yoqilg'isi miqdori;

SS – Soliq stavkasi;

F – Hisoblanmasdan qolgan aksiz solig'i (hisobotda qolgan aksiz solig'i summasi stavkaga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan formula yordamida avtomobillarga yoqilg'i quyish shaxobchalari tomonidan haqiqatda realizatsiya qilingan yoqilg'i miqdorini aksiz solig'i hisobotida to'liq aks ettirilishini raqamlashtirish orqali hisoblanmasdan qolgan dizel yoqilg'isi miqdorini, hamda hisoblanmasdan qolgan aksiz solig'i summasini aniqlash mumkin bo'ladi. Natijada aksiz solig'i tushumini ko'payishiga, byudjet daromadlarining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Navbatdagi aksiz solig'i bo'yicha amaliy muammolardan biri aksiz markalari bilan markalashda alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlarni aylanmasini nazorat qilishning qiyinligi, markalarni (kodlarni) buyurtma qilish va qabul qilishda uzoq vaqt, ya'ni mahsulot ishlab chiqarish (import qilish) rejalashtirilgan sanadan 30-60 kun oldin ariza olinib, uzoq vaqt talab qilinadi. Shuningdek markalar (kodlar) berilganligini tasdiqlovchi hujjatlar jumladan, to'lov hujjati, qat'iy buxgalteriya hujjatlari jurnali singari ortiqcha hujjatlar talab qilinadi. Markalaridan (kodlardan) foydalanish to'g'risida hisobot har chorakda taqdim etiladi. Foydalanilmagan markalarni (kodlarni) qaytarish mumkin emas va foydalanilmay qolgan markalarni yo'q qilinishi, shuningdek, ishlab chiqarish, realizatsiya, hisobdan chiqarishda kuzatuv imkoniyati yo'qligi singari bir qator muammolar mavjud.

Muallifning fikricha, yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida,

Chet el amaliyotlariga asoslangan holda, aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarish, tahlil qilish va aylanmasini boshqarishni (ishlab chiqarish, aylanma, hisobdan chiqarish) "onlayn" rejimida raqamli markirovkalash Data Matrix kodi tizimiga o'tish maqsadga muvofiq. Chunki ACU TP va API markirovkalash tizimi orqali buyurtma berish va qabul qilish "Onlayn" rejimida markirovka kodlarini yaratish mumkin. Shuningdek, markirovka kodlari berilganligi to'g'risida bildirishnoma markalash tizimida avtomatik hisobotlarni shakllantirilib, to'g'ridan-to'g'ri qo'llash uskunalari ishlatiladi, oldindan yorliq (tipografiya) yoki qo'lda qo'llash (stikerlash) qo'llaniladi. ASU TP ishlab chiqarish jarayonida markirovka tizimida hisobot avtomatik ravishda shakllanadi. Faqat ishlatilgan markalash kodlari uchun to'lanadi. Aksiz to'lanadigan tovarlar yo'qolgan taqdirda hisobdan chiqarish imkoniyati mavjud. Raqamli markirovka ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek estetik ko'rinishga va "brendlash" imkoniyatiga ega.

Ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarishda mahsulotning har bir qadog'iga noyob markalash kodi qo'llaniladi (Data Matrix kodi). Distribyutor, import qiluvchi yuk tashish paytida markirovkalash kodi skanerdan o'tkaziladi, ma'lumotlar EHFga (elektron hisobvaroq-faktura) va markirovkalash tizimiga kiritiladi. Ulgurji savdosi tashkiloti tovarlarning qabul qilishda markirovkalash kodi skanerdan o'tkaziladi, jo'natilgan hujjat bilan taqqoslanadi va haqiqiyliги tekshiriladi Chakana savdo tashkiloti tovar sotilganda markirovka kodi onlayn NKM orqali aylanmadan chiqariladi va u qayta sotilmaydi. Shu bilan birga iste'molchi mobililova yordamida mahsulotning haqiqiyliğini tekshirish imkoniyati ham mavjud bo'ladi.

XULOSA

Dissertatsiya ishida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Soliqlarni raqamlashtirish tushunchasining nazariy ta'rifi shakllantirildi. Muallifning fikricha, quyidagi mualliflik ta'rifini keltirish maqsadga muvofiq:

Soliqlarni raqamlashtirish bu - soliqlarni undirish, o'zgartirish, daromadni oshirishga ta'sir qiluvchi raqamli texnologiyalar va axborot tizimlarini yaratib, uni amalda qo'llash orqali shaffoflikni oshirish, ma'lumotlarni yaxlitligini ta'minlash, inson omili ta'sirini kamaytirish, xizmat sifatini yaxshilash, xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat o'rtasidagi yaxshi hamkorlikni o'rnatish, ichki moliyaviy shart-sharoitlar yaratish imkonini beradigan jarayondir.

2. Soliqlarni raqamlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish, ma'lumotlarini qayta ishlash, soliq to'lovchilar haqida ma'lumotlarning kengaytirish, ma'lumotlar va hisobotlarni avtomatik ravishda to'ldirish orqali vaqt va ortiqcha xarajatlarni kamaytirib bilvosita soliqlarning undirilishini optimalashtirish imkonini beradi.

3. Soliq nazoratida innovatsion va interaktiv yondashuvlar, xamda ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalanish soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi ustidan soliq nazoratining yuqori natijaviyligi, xolisligi va haqqoniyligi, huququbuzarliklarni oldini olish, soliq to'lovchilar tomonidan soliqdan bo'yin tovlashni, soliq bazasini kamaytirib ko'rsatilishi, asossiz soliq chegirmalaridan foydalanishni cheklab bilvosita soliqlarning fiskal salohiyatini mustahkamlashga yordam beradi.

4. Bilvosita soliqlar tushunchasining nazariy mualliflik ta'rifi shakllantirildi. Muallifning fikricha, quyidagi ta'rif bilvosita soliqlarning barcha turlariga xos muhim xususiyatlarni yoritib beradi, shuningdek o'ziga xosligini ham aks ettiradi. Bilvosita soliqlar tovarlar, ishlar, xizmatlar narxiga qo'shimcha bo'lgan davlat tomonidan soliqni byudjetga o'tkazishda vositachi sifatida yakuniy iste'molchiga o'tkazish jarayonida yuzaga keladigan soliqqa tortish usuli bilan farq qiluvchi va doimiy harakatlarga ta'sir qiluvchi aniq faktlar asosida majburiy undiriladigan soliq turidir.

5. Soliq to'lovchilarning QQS bo'yicha salbiy farq summasini qaytarish va soliq summasi o'rnini qoplashning tezlashtirilgan tartibi inson omilining ta'sirini cheklash orqali QQS boshqarish tizimini takomillashtirish, shuningdek xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratib, shuningdek, soliq riski yuqori bo'lgan kontragentlar bilan operatsiyalarni cheklash imkonini beradi.

6. QQS undirishda soliq organlari va soliq to'lovchi o'rtasida axborot almashinuvini yo'lga qo'yilishi ortiqcha hujjatlar talab qilinishiga barham berish, soliq xizmati va soliq to'lovchilar o'rtasidagigi yagona hisobot standartini ishlab chiqish va o'zaro munosabatlarni soddalashtirishga xizmat qiladi.

7. Aksiz solig'i soliq undirishning eng qadimiy turlaridan biri hisoblanadi. Aksiz soliq QQS, hamda bojxona to'lovlari bilan solishtirganda byudjetlarning daromadlarini shakllantirishda unchalik muhim hisoblanmaydi. Aksiz solig'ining alkogol va tamaki mahsulotlari singari inson salomatligiga jiddiy zarar etkazuvchi mahsulotlarga tatbiq etilishi zararli mahsulotlar iste'molini cheklashga qaratilgan. Shuningdek aholining eng boy qismining daromadlariga aksiz solig'i undirish

yordamida, avvalambor, qimmatbaho tovarlarga nisbatan soliq solish orqali qayta taqsimlanadi.

8. Raqamli markirovkalash bozorni va iste'molchilarni kontrafakt va noqonuniy mahsulotlardan himoya qilishga qaratilgan. Aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarish, tahlil qilish va aylanmasini boshqarishni (ishlab chiqarish, aylanma, hisobdan chiqarish) "onlayn" rejimida raqamli markirovkalash Data Matrix kodi tizimiga o'tish orqali ortiqcha vaqt va ortiqcha xarajatlarni tejaydi, tovarlarning qabul qilishda markirovkalash kodi skaynerdan o'tkaziladi, jo'natilgan hujjat bilan taqqoslanib haqiqiyliги tekshiriladi.

9. Aksiz solig'ini haqiqatdagi realizatsiya miqdorini aniqlash orqali avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari tomonidan haqiqatda realizatsiya qilingan yoqilg'i miqdorini, hamda hisoblanmasdan qolgan aksiz solig'i summasini aniqlash imkonini beradi.

10. Aksiz solig'ini undirishda mevalar va sabzavotlardan tayyorlangan, tabiiy shirin bo'lgan hamda tarkibida qo'shimcha shakar va boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo'ylashtiruvchi moddalar mavjud bo'lmagan sharbatlarga nisbatan soliq qo'llanilmasligi aholi salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

11. Tarkibida shakar mavjud bo'lgan meva sharbatlari, kvas, kompot, gazlangan shirin ichimliklarga aksiz solig'ini joriy qilish aholi salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, qand kassalligini cheklashga yordam beradi.

12. Davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun undiriladigan majburiy to'lovdir. Davlat boji davlatning maxsus vakolatli idoralari (sud, ichki ishlar bo'limlari, davlat xizmatlari markazlari, notarial hamda sug'urta idoralari va b.) tomonidan fuqarolar, korxonalar, tashkilot va muassasalar manfaatlari yo'lida xizmat ko'rsatganlik hamda yuridik ahamiyatga molik hujjatlar (pasport, turli guvohnomalar, sertifikat, litsenziya va boshqalar) berganlik uchun undiradigan pul yig'implaridir.

13. Bojxona bojlarini undirish, hisoblashni avtomatlashtirilishi, shuningdek bojxona to'lovlarini undirish bo'yicha qabul qilingan islohotlar va imtiyozlar bojxona to'lovlari hajmi va tashqi savdo aylanmasining oshishi bojxona tushumlarining ko'payishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Bilvosita soliqlar bugungi kunda aksariyat davlatlar singari O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetini shakllantirayotgan asosiy soliqlardan biri hisoblanadi. Bilvosita soliqlar byudjet daromadlarini mustahkamlaydi, byudjetdan bo'ladigan ijtimoiy zaruriy xarajatlarni uzluksiz o'z vaqtida mustahkam moliyalashtirish imkonini beradi. Shuning uchun bilvosita soliqlar undirish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, yangi texnologik yechimlarni izlash, soliqning yangi shakllarini rivojlantirish, yashirin ma'lumotlarni aniqlash, soliq va yig'implarni to'lash bo'yicha majburiyatlarni bajarish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash soliq nazorati samaradorligi va shaffofligini oshirish, soliq ma'lumotlari almashinuvi jarayonlarini standartlashtirish, soliq undirishdagi tarkibiy o'zgarishlar ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.07.2024.I.78.06 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМИЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

АБДУЛХАЕВА ШАХНОЗА МУХАММАДИЕВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ВЗИМАНИЕ
КОСВЕННЫХ НАЛОГОВ В ПРОЦЕССЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Термез – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована в ВАК под № В2023.2.PhD/Iq2949.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме) размещен на сайте Ученого совета (termizdu@umail.uz) и в информационно-образовательной сети «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель:	Худойкулов Садирдин Каримович, доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Алимарданов Ильхом Музробиевич доктор экономических наук, доцент Махмадулов Жалол Махмадулович доктор экономических наук (PhD), доцент
Ведущая организация:	Самаркандский институт экономики и сервиса

Защита диссертации состоится 10 » 06 2025 года 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.07.2024.1.78.06 по присуждению ученых степеней при Термизском государственном университете. Адрес: 190111, город Термез, улица Баркамол авлод, 43. Тел.: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном Термизского государственного университета (зарегистрировано под № 304. Адрес: 190111, город Термез, улица Баркамол авлод, 43. Тел.: (876) 221-74-55

Автореферат диссертации разослан « 5 » 06 2025 года.
(протокол реестра под № 3 от « 5 » 06 2025 года).



А.Х. Ташкулов
Член Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
экономических наук, профессор

У.Т. Тулаков
Секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
философии по экономическим наукам,
доцент

С.Ж. Гадоев
Председатель Научного семинара при
Научном совете, доктор экономических
наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Согласно мировому опыту, для дальнейшего совершенствования налоговой системы важен переход налогового администрирования на новую модель, а именно на более интегрированную модель, которая станет цифровым налоговым администрированием. В частности, особое внимание уделяется комплексному анализу налоговых факторов, унификации видов налогов, взиманию налогов на основе использования электронных систем и современных информационных технологий, представлению налоговой отчетности, а также созданию удобств для ведения предпринимательской деятельности. В этой связи Европейская комиссия (Транснациональный сетевой анализ) приняла законодательство, направленное на улучшение сбора данных о деятельности в сфере электронной коммерции, разрешив государствам-членам обмениваться данными и обрабатывать их, выявлять случаи мошенничества, автоматизировать сбор целевых данных и анализ их рисков, а также исключив ручное вмешательство подозрительных сетей¹. Сегодня для дальнейшего развития экономической деятельности и повышения собираемости налогов важна цифровизация налогов, внедрение и применение новых цифровых технологий в налоговом администрировании.

В мире научные исследования, проводимые с целью совершенствования механизмов взимания косвенных налогов за счёт цифровизации, в основном направлены на эффективную организацию налогового администрирования, увеличение налоговых поступлений с помощью цифровых технологий, автоматизацию процессов отчетности налогоплательщиков и повышение уровня прозрачности. В современных исследованиях основными направлениями определены внедрение электронных систем счетов-фактур, мониторинг налоговых операций на основе технологии блокчейн, обеспечение обмена данными в режиме реального времени через цифровые платформы, а также использование искусственного интеллекта и аналитических инструментов для выявления случаев уклонения от уплаты налогов. При этом исследования рассматривают совершенствование правовой базы и обеспечение кибербезопасности как важные условия цифровизации.

Фискальная политика Узбекистана направлена на обеспечение фискальной стабильности и поддержку устойчивого экономического роста, при этом одной из ее главных целей является удержание дефицита консолидированного бюджета на уровне ниже 3 % ВВП². В результате принятых мер по расширению предоставления современных информационных услуг и сокращению теневой

¹ Международная налоговая организация для практического сотрудничества и обмена знаниями по вопросам налогового администрирования

² Реформы, направленные на переход к "зеленой" экономике в 2024-2026 годах.

экономики количество плательщиков налога на добавленную стоимость увеличилось в 2,7 раза, количество оказанных налогоплательщикам услуг увеличилось в 2,8 раза, а электронных услуг – в 4,1 раза. Также в 2,5 раза сократилось количество документальных налоговых проверок, проводимых налоговыми комитетами, а эффективность налоговых проверок, проводимых по программам «налогового риска», существенно возросла. Имеющиеся диспропорции в действующем порядке исчисления и уплаты налога на добавленную стоимость, учитывая предоставление субъектам хозяйствования отдельных отраслей экономики льгот и преференций, не позволяют создать полноценную цепочку налога на добавленную стоимость, обеспечивающую равные условия для всех субъектов хозяйствования. В этой связи важное место имеет проведение научных исследований по устранению аспектов, негативно влияющих на практику.

Актуальность исследования определяется необходимостью правильного и точного расчёта налоговых данных, эффективного использования налоговых льгот, разработки механизмов взимания НДС, акцизного налога и таможенных пошлин, оптимизации налогового администрирования, совершенствования механизмов взимания косвенных налогов, имеющих высокую фискальную значимость в формировании доходов государственного бюджета, а также выработки предложений и рекомендаций, направленных на повышение доходной части бюджета и их практическое внедрение³.

Настоящая диссертационная работа в определённой степени способствует реализации задач, предусмотренных следующими нормативно-правовыми актами: Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № PF-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указ от 24 августа 2021 года № PF-5755 «О совершенствовании администрирования налога на добавленную стоимость», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 26 июля 2023 года № 313 «О введении акцизных марок нового образца на алкогольную и табачную продукцию», Постановление от 22 сентября 2021 года № 595 «О мерах по дальнейшему совершенствованию учёта налогоплательщиков и упрощению порядка возмещения налога на добавленную стоимость», а также другими нормативно-правовыми актами, регулирующими данную сферу деятельности. На сегодня вступил в силу Указ Президента Республики Узбекистан от 24 августа 2021 года «О совершенствовании администрирования налога на добавленную стоимость», постановление №313 от 26 июля 2023 года «О введении новых акцизных марок на алкогольную и табачную продукцию». Актуальность научно-исследовательской работы определяется необходимостью правильного и точного расчета налоговых данных на основе решений Президента Республики Узбекистан, правильного использования налоговых льгот, разработки механизмов взимания НДС, акцизов и таможенных пошлин, оптимизации налогового администрирования, совершенствования механизмов взимания косвенных налогов, имеющих

³ Указ Президента Республики Узбекистан от 27 июня 2019 года No УП-5755 «О мерах по дальнейшему упорядочению предоставления налоговых и таможенных льгот»

высокий фискальный вес в формировании доходов государственного бюджета, а также внесения предложений и рекомендаций, способствующих увеличению доходов бюджета и их реализации на практике.

